



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHI QARORI

210100, Navoiy sh., Islom Karimov sh. 77 A, tel: (79) 229-62-80, e-mail: navoi@exat.uz, info@navoi.uz

2023 - yil 22 - iyul

VI-59-69-5-0-K/23

Navoiy viloyat hokimligi

Navoiy viloyati mahalliy budgetining 2023-yil birinchi yarim yilligidagi ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning rahnamoligida mamlakatimizda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Viloyat mahalliy budgetining 2023-yil birinchi yarim yillik ijrosi O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi VI-45-184-5-0-K/22-sonli qarorida belgilangan ko‘rsatkichlar doirasida bajarilishi ta’minlandi.

Joriy yilning birinchi yarim yilligida mahalliy budgetning daromadlar rejasи 1 273,0 mlrd so‘m belgilangan bo‘lib, haqiqatda 1 370,4 mlrd so‘m yoki 108 foizga bajarilib, budgetga qo‘sishma ravishda 97,3 mlrd so‘m mablag‘ tushirilishi ta’minlandi.

Mahalliy hokimlik organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirishni ta’minlash maqsadida 2023-yil mahalliy budgetning yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari 158,8 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Viloyat mahalliy budgetining xarajatlari 2023-yil birinchi yarim yilligida 1 974,1 mlrd so‘mga ijro etilishi ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 27-, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyat mahalliy budgetining 2023-yil birinchi yarim yilligidagi ijrosi yuzasidan viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig‘i D. Ochilovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yilning birinchi yarim yilligida mahalliy budgetning daromadlari 1 370,4 mldr so‘mga va xarajatlari 1 974,1 mldr so‘mga ijro etilganligi;

viloyat mahalliy budgetining 2023-yil birinchi yarim yillik ijrosi davomida aniqlangan mahalliy budgetining qo‘sishimcha manbalari hisobidan jami 148,7 mldr so‘m mablag‘ quyidagi maqsadlar uchun yo‘naltirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

xalq ta’limi sohasiga 6,5 mldr so‘m, maktabgacha ta’lim sohasiga 0,5 mldr so‘m, sog‘liqni saqlash sohasiga 10,6 mldr so‘m, madaniyat sohasiga 4,7 mldr so‘m va sport sohasiga 1,3 mldr so‘m;

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturi doirasida 17,7 mldr so‘m;

“Saxovat va ko‘mak jamg‘armasi”ga 9,3 mldr so‘m, viloyatdagi yetim bolalarni uy-joy bilan ta’minalash xarajatlari uchun 1,4 mldr so‘m;

“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga 8,3 mldr so‘m; “Ayollar daftari” jamg‘armasiga 4,0 mldr so‘m; harbiy-ma’muriy sektorni rivojlantirish xarajatlariga 9,3 mldr so‘m; hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga va boshqa xarajatlarga 75,1 mldr so‘m mablag‘lar ajratilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yilning birinchi yarim yilligidagi mahalliy budgetlar daromadlarining va xarajatlarining tumanlar kesimida kiritilgan o‘zgarishlar bilan aniqlangan miqdorlari 1-ilovaga, soliq turlari daromadlarning aniqlangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (D. Ochilov) viloyat mahalliy budgetining ikkinchi chorak daromadlarining rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan tadbirlar, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish, harbiy-ma’muriy sektorlarni rivojlantirish xarajatlari, “Ayollar” va “Yoshlar” daftari jamg‘armalari, “Tashabbusli” budget xarajatlari hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga va kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarga viloyat hokimining farmoyishi asosida yo‘naltirsin.

5. Viloyat soliq boshqarmasi (A. Botiraliyev) va viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (D. Ochilov) tuman va shahar hokimlari bilan viloyat mahalliy budgetining 2023-yil uchinchi chorak daromadlarining belgilangan rejasi daromad

turlari bo‘yicha ijrosini hamda Hukumat tomonidan belgilangan qo‘shimcha daromadlar manbasini aniqlab, mahalliy budgetga tushumini ta’minlasin.

6. Viloyat sektor rahbarlari viloyat budgetining 2023-yil uchunchi chorak uchun belgilangan 705,8 mlrd so‘m daromadlar rejasini ijrosini to‘liq ta’minlanishini nazoratga olsinlar.

7. Budget tashkilot va muassasalari hamda budgetdan mablag‘ oluvchilar ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari v.b. T. Atamuradov va xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (G‘. Aliyev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiyada raislik qiluvchi



J.Hamrayev

Xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining
2023-yil 22-iyuldag'i
VI-59-69-5-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

**Navoiy viloyati bo'yicha 2023-yil birinchi yarim yilligida mahalliy budgetning daromadlar va xarajatlar miqdorlarining
bajarilishi to'g'risida**

ming.so'mda

Shahar va tumanlar nomi		Daromadlar mahalliy		Xarajat	
		Aniqlangan reja	Bajarilishi	Aniqlangan reja	Bajarilishi
1	Viloyat byudjeti	1,003,258,580.0	1,070,386,253.6	1,285,780,660.6	983,016,525.4
2	Zarafshon shaxar	27,645,460.0	29,424,400.1	109,639,186.0	95,277,791.0
3	Qiziltepa tumani	31,383,800.0	34,918,834.0	152,057,148.0	145,655,881.2
4	Navbaxor tumani	16,063,200.0	17,749,265.9	110,856,027.0	96,587,893.0
5	Navoiy shahar	87,837,060.0	95,297,672.8	121,176,565.0	119,584,493.4
6	Nurota tumani	11,834,900.0	13,679,901.2	97,406,836.0	94,483,980.4
7	Konimex tumani	11,056,800.0	12,682,094.5	58,652,305.0	53,933,596.7
8	Tomdi tumani	9,798,400.0	11,704,956.2	37,588,993.0	31,630,024.8
9	Xatirchi tumani	24,456,400.0	26,795,198.1	190,959,110.0	175,189,570.2
10	Uchquduq tumani	19,187,800.0	22,185,309.5	67,432,648.0	58,448,742.5
11	Karmana tumani	29,264,600.0	33,814,030.2	106,839,229.0	104,263,850.8
12	G'ozg'on shahar	1,237,200.0	1,733,055.3	21,271,657.0	16,005,519.9
JAMI:		1,273,024,200.0	1,370,370,971.5	2,359,660,364.6	1,974,077,869.2

Xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining
2023-yil 22-iyuldag'i
VI-59-69-5-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyatining 2023-yil birinchi yarim yilligida mahalliy budget daromadlarining soliq turlari kesimida kiritilgan o'zgartirishlar bilan aniqlangan miqdorlari

№	Daromad turlari	Reja	Bajarilishi	Farqi	
				summa	%
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	99,390,000	62,050,607	-37,339,393	62%
2	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	34,145,000	34,377,608	232,608	101%
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	612,139,200	651,398,043	39,258,843	106%
5	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	3,353,000	3,260,684	-92,316	97%
6	Qo'shilgan qiymat solig'i	0	0	0	
7	Aksiz solig'i, jami	52,237,000	54,116,242	1,879,242	104%
55	- oxirigi iste'molchiga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizasiyasi	52,237,000	54,116,242	1,879,242	104%
9	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	151,049,000	207,965,357	56,916,357	138%
10	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	19,041,000	19,765,434	724,434	104%
11	Yuridik shaxslarning yer solig'i	105,931,000	125,717,125	19,786,125	119%
12	Jismoniy shaxslarning yer solig'i	27,477,000	26,885,901	-591,099	98%
13	Yagona yer solig'i	0	25,671	25,671	
15	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	36,595,000	42,028,624	5,433,624	115%
16	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	38,215,000	45,663,218	7,448,218	119%
	Davlat tashkilotlari foyda solig'i	916,000	0	-916,000	0%
17	Davlat boji	31,008,000	29,499,856	-1,508,144	95%
18	Jarimalar	25,019,000	25,389,299	370,269	101%
21	Mahalliy yig'imlar	21,277,000	22,763,366	1,486,366	107%
22	Xususiylashtirish	11,750,000	3,248,613	-8,501,387	28%
	Ijara to'lovlari	3,482,000	803,229	-2,678,771	23%
23	Boshqa tushumlar	0	15,412,092	15,412,092	
JAMI:		1,273,024,200.0	1,370,370,971.5	97,346,741	108%